

## KREATIV FIKRLASH TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TALQINI

**Abdug‘affarova Mahbuba Sherzod qizi**  
**Denov tadbirkorlik va pedagogika**  
**instituti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kreativ fikrlash tushunchasining pedagogik va psixologik talqinlari tahlil qilinadi. Maqolada kreativ fikrlashning nazariy asoslari, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Pedagogik nuqtai nazardan, kreativ fikrlash o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni innovatsion usulda hal qilish va yangicha g‘oyalarni shakllantirish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Psixologik talqin esa insonning kognitiv jarayonlari, fantaziya va tasavvur faoliyati bilan bog‘liq jihatlarni ochib beradi. Maqola kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari va pedagogik yondashuvlarni ham muhokama qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Kreativ fikrlash, ijodiy salohiyat, pedagogik talqin, psixologik talqin, muammolarni hal qilish, innovatsion yondashuvlar.

Jahonda ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy omil sifatida e’tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan yangi ta’lim kontsepsiyasida “o‘qitish sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy qilish”<sup>1</sup> dolzarb vazifa sifatida etib belgilandi. Davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayotgan ta’lim mazmunida o‘quvchilarning kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari orqali ta’lim samaradorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu, o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kreativ fikrlashini barvaqt rivojlantirish; boshlang‘ich ta’limning shaxs kamolotini ta’minlovchilik imkoniyatlari bilan o‘quvchilarda kreativ fikrlashini ijodiy topshiriqlar vositasida rivojlantirishga xizmat qiladigan metodikani ishlab chiqish; darslarda maqsadga yo‘naltirilgan og‘zaki savol va mashqlardan o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda

---

<sup>1</sup> 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limni tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

foydalanish yo'llari, metodlarini takomillashtirish hamda joriy etish metodikasini ishlab chiqish zaruriyatining yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda.

Respublikamizda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda o'quv-tarbiya jarayoni natijaviyligiga alohida e'tibor qaratilib, takomillashtirilgan metodik tizimni ishlab chiqish zarurligiga urg'u berilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativ fikrlashini rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida takomillashgan metodik tizimni yaratishga oid ilmiy jihatdan asoslangan takliflar, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish, muloqot va o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Kreativ fikrlaydigan, iqtidorli yoshlarni ijodkorlik faoliyatiga jalb etish, ijtimoiy va shaxsiy faolligi kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini, innovatsion yondashuvni tizimli tarzda tashkil etishning metodologik asoslari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi talab o'quvchilarning kreativ fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini, tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog'lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng miqyosda qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da – "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish"<sup>2</sup> masalasiga ustuvorlik berilgan. Mazkur farmon ta'lim tizimida o'qitish sifatini takomillashtirishni taqozo etadi va natijada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirishning metodik imkoniyatlari yanada kengayadi.

Pedagogika va psixologiya fanlari doirasida shaxs kreativligini shakllantirish va rivojlantirish muammosi har tomonlama o'rganilib, zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishni taqozo etmoqda.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. –O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjati, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

Dunyo ilm-fanida kreativlik masalasi har bir davrda olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan va shaxs kreativligini shakllantirish va rivojlantirish muammosi har tomonlama o‘rganilib, zamonaviy ta‘lim o‘quvchining kreativlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishni taqozo etmoqda.

Kreativlik tushunchasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri mazkur hodisaning muhim jihatlarini yoritadi. Leksik jihatdan, “kreativlik” atamasi lotincha creare - “yaratmoq” va inglizcha create - “yaratish”, creative - “ijodkor” so‘zlaridan kelib chiqqan. Ilmiy talqinda kreativlik bu shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga ichki tayyorligi, noodatiy fikrlash qobiliyati hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tuzilmasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bunday izoh kreativlikni nafaqat yangilik yarata olish imkoniyati, balki shaxsning intellektual salohiyati, motivatsiyasi va tafakkur moslashuvchanligining uyg‘un ifodasi sifatida ham tushunishga imkon beradi<sup>3</sup>.

“Kreativlik” atamasi 1950-yilda J.Gilford tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda “ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalarini o‘zaro bog‘lashda ba‘zi noaniqliklar mavjud. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida “ijod – yaratish, kashf etish; vujudga keltirish ma’nolarini anglatib, badiiy, ilmiy, san’atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati hamda yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarasi” ekanligi qayd etib o‘tilgan<sup>4</sup>.

“Ma’naviyat: asosiy tushunchalar” izohli lug‘atida esa, mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Ijod (arab. yaratish, kashf etish, vujudga keltirish) – badiiy, ilmiy, amaliy asar yoki moddiy boylikni yaratish, vujudga keltirish. Ijod mohiyatan yaratuvchanlik faoliyati bo‘lib, inson ma’naviyatining amaldagi ko‘rinishini ifoda etadi”<sup>5</sup>.

D.P. Gilford o‘zining tadqiqotida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turiga ajratdi. Konvergent tafakkur - (lotincha convergere-“bir yo‘ldan”) tafakkur formasi bo‘lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to‘g‘risini tanlashdir.

---

<sup>3</sup> Ne‘matov B.S. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor.* 2021. 901-b.

<sup>4</sup> “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. - Toshkent: 2001-2006 y.

<sup>5</sup> “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar” izohli lug‘ati, 2010.

Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi. Divergent tafakkur - (lotincha divergere-“bo‘linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo‘lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o‘zida turli yo‘nalishlarga izlanish, ya’ni bir muammoga bir nechta to‘g‘ri javoblar borligini va original ijodiy g‘oyalarning tug‘ilishiga xizmat qiladi. Divergent tafakkurning negizini esa kreativlik tashkil etadi. Kreativlik tafakkurning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lib, shaxs tafakkuri qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, kreativ fikrlashi ham shunchalik rivojlangan bo‘ladi.

Ellis Paul Torrance (1915–2003) kreativlikni ilmiy asosda o‘lchash uchun o‘zining mashhur bo‘lgan Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT) testini ishlab chiqdi. U kreativlikni ta’limda rivojlantirish va har bir insonda mavjudligini isbotladi. Torrancening “Guiding Creative Talent” (Ijodiy iste’dodni yo‘naltirish) va “The Search for Satori and Creativity” (Ijodkorlik va ilhom izlash) asarlarida kreativlik va ijodkorlikning kuchli tomonlarni o‘lchashga mo‘ljallangan oltita kichik mezonlari xususida fikr yuritadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (original) lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. Tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu mezonni qanoqlantirishi lozim. Torrens fikriga ko‘ra, o‘quvchilarning ijodkorlikka oid testlar bo‘yicha qayd etgan ko‘rsatkichlari umumlashtirilishi mumkin va bir bilim sohasiga tegishli ko‘rsatgich boshqasiga o‘tkazilishi mumkin. Shunga qaramasdan, sohada olib borilgan ko‘pgina tadqiqotlar mazkur farazga zid ko‘rinadi. Ularda aytilishicha, kreativlik va ijodkorlik ko‘nikmasining o‘zlashtirilishi uchun kerakli ko‘nikmalar, o‘ziga xosliklar bilim sohasiga tegishli, shuning uchun ular bilim sohasidan farqlanadi yoki ikkala yondashuv jihatlarini birlashtirib kreativlik modellarini taqdim etadi.

Mihaly Csikszentmihalyi (1934–2021) ijodiy jarayonni tushunishda o‘zining “Flow” (oqim) nazariyasini ishlab chiqdi. U ijodkorlik insonning o‘z ishiga to‘liq sho‘ng‘ishi va bu jarayondan zavq olish jarayonida maksimal samaradorlikka erishishini tushuntirgan. Mihaly Csikszentmihalyi “Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention” (Kreativlik: Oqim va kashfiyot psixologiyasi) asarida “Ushbu tadqiqotning olimlar uchun foydasi aniq bo‘lsa-da, ilmiy va so‘zlashuv nutqining bu o‘ylantiruvchi aralashmasi qiziquvchan keng o‘quvchilarni ham yoritadi”. Ijod - bu hayotni yashashga arziydigan lahzalarni suratga olishdir. Afsonaviy psixolog Mihali Csikszentmihalyi bu bilimlardan foydalanish uchun molbertdagi rassomning hayajonlanishini yoki laboratoriyadagi olimning hayajoniga nima olib

kelishini ochib beradi. Uning izlanishlari ijodiy odamlarni o‘rganishga qaratilgan. “Men odamlar qanday qilib ijodkor bo‘lib qolishlari haqida sifatli tadqiqot olib boraman. *Haqiqiy ijodiy yutuq esa deyarli hech qachon to‘satdan idrok etish, zulmatda yonib-o‘chadigan lampochkaning natijasi emas, balki ko‘p yillik mashaqqatli mehnatdan keyin keladi. Shuning uchun ijodkorlik odamlarning boshlarida emas, balki insonning fikrlari va ijtimoiy-madaniy kontekst o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirda sodir bo‘ladi. Bu individual emas, balki tizimli hodisa*” – deb hisoblaydi Csikszentmihalyi. Uning kuzatishlarida ijodiy jarayon an’anaviy ravishda besh bosqichdan iborat deb ta’riflanadi. Birinchisi, qiziqarli va qiziqish uyg‘otadigan muammoli masalalar to‘plamiga ongli ravishda yoki yo‘q bo‘lib, tayyorgarlik davri. Ijodiy jarayonning ikkinchi bosqichi - bu inkubatsiya davri bo‘lib, bu davrda g‘oyalar ong ostonasidan pastroqda aylanadi. Aynan shu vaqt ichida g‘ayrioddiy aloqalar paydo bo‘lishi mumkin. Ijodiy jarayonning uchinchi komponenti - bu ba’zan “Aha!”, “Qoyil!”, “Urta!” deb ataladigan tushuncha bo‘lib, Arximedning “Evrika!” deb qichqirgandagi hayajonli holatiga qiyoslasak bo‘ladi. To‘rtinchi komponent - bu baholash, bunda inson tushunchaning qimmatli yoki qimmat emasligini hal qilishi kerak. Jarayonning beshinchi va oxirgi komponenti takomillashganlikdir. Csikszentmihalyi “eng yaxshi g‘oyalar dush qabul qilganda, ta’tilda, yugurishda, mashina haydashda sodir bo‘ladi”- deb hisoblaydi. **Ya’ni inson atrofidagi narsalardan qanchalik ko‘p zavq olsa, undagi kreativ ko‘nikmalar shu qadar faolroq kuzatiladi.**

Kreativlik (ijodiylik) - qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon.

Ko‘plab ilmiy konsepsiyalarda qobiliyat kreativlikni bildiradigan ijodiy imkoniyatlar bilan bog‘lanadi. Kreativlik – fikrlash, muloqot va boshqa faoliyat turlarida, noaniqlik, qarama-qarshiliklarda namoyon bo‘ladi. Kreativlikning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar: kreativlik – mahsulot, jarayon, qobiliyat, shaxsning fazilati. Kreativlikka, umuman ijodkorlikka bo‘lgan nuqtayi nazarlarning xilma-xilligi inson borlig‘ida namoyon bo‘ladigan keng ko‘lamli hodisalarni aks ettiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Beers, S. Z. (2011). 21-asr ko‘nikmalari: O‘quvchilarni Ularning Kelajagi Uchun Tayyorlash. Amerika San'at va Fanlar Akademiyasi Jurnal.
2. Mooney, M. (2013). STEM O‘zgarishi: Maktab Rahbarlari Uchun Qo‘llanma. ASCD.
3. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Muammo Asosida O‘qitish: O‘qitish Modeli va Uning Konstruktivistik Ramkasi. Muammo Asosidagi O‘qitishning Interdisiplinar Jurnal.

4. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81-84.
5. Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. Open Access Repository, 4(2), 434-437.
6. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. World Bulletin of Social Sciences, 27, 54-56.
7. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. Open Access Repository, 9(10), 112-116.
8. Kulmominov, O., & Ibragimova, F. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 34, 66-69.
9. Kulmominov, O. (2024). Creative Thinking Of Students In Primary Education And Methods Of Its Display In The Educational Process. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(5), 283-289.